



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'ZARO MUNOSABATLARIDA HUDUDIIY YAXLITLIKNI E'TIROF ETISH

Burxonova Bibixon

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti, Siyosatshunoslik yo'nalishi

4 – kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15167581>

Kalit so'zlar: Tranzit, investitsiya, ratifikatsiya, global iqtisodiyot, chegaralaviy daxlsizlik.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamalakatlari o'rtasida ko'plab ijtimoiy – iqtisodiy hamda siyosiy hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Ma'lumki Markaziy Osiyo davlatlariga 5ta respublika - Qozog'iston , O'zbekiston , Qirg'iziston , Turkmaniston va Tojikiston davlatlari kiradi. Markaziy Osiyo hududlari geografik jihatdan okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi sababli qadim zamonlardan ushbu Osiyo qit'asidagi submintaqa asosan quruqlik yo'llari orqali savdo jarayonlari , madaniyat va ilmiy yangiliklar almashinuvi bo'lib o'tgan. Bunday noodatiy jug'rofiy joylashuv miloddan avvalgi davrlardan - Buyuk Ipak yo'lida asosiy tranzit hududlaridan biri bo'lib , G'arb hamda Sharq madaniyatlari , g'oyalari o'rtasida “ markaziy chorraha ” vazifasini bajargan. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoda tahminan 80.2 million kishi istiqomat qilib, ular beshta davlatga taqsimlangan : Qozog'iston (20 million) , Qirg'iziston (7 million) , Tojikiston (10 million) , Turkmaniston (6 million) va O'zbekiston (37.2 million).

Hozirgi kunda ham mintaqamizdagi o'zaro munosabatlarning ijobiy tarzda amalga oshirilishida xalqaro xavfsizlik, millatlararo tinch – totuvlik, global taraqqiyot hamda o'zaro bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati nihoyatda katta.

Qayd etish joizki , Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, birinchidan , xalq farovonligini , ikkinchidan , mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirib, xorijiy sherik davlatlar va investorlar bilan hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. O'zbekiston va mintaqada davlatlari o'rtasida shakllangan va yana-da mustahkamlanib borayotgan yangi muhit mazkur maqsadlarga erishishga hamda o'zaroro siyosiy, savdo -iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Shanhay



hamkorlik tashkiloti (SHHT), Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi (TTDHK), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) va boshqa tuzilmalar doirasida ham rivojlantirishni, bunda nafaqat siyosiy - diplomatik munosabatlar, balki iqtisodiy diplomatiya, parlamentlararo diplomatiya hamda xalq diplomatiyasini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo mamlakatlari tinchliksevar mintaq va rivojlanish tarafdorlari sifatida jahon miqyosida turli xil yo'nalishlarda - iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, texnologik hamda boshqa yo'nalishlarda dunyoning ko'plab xalqaro va mintaqalararo tashkilotlari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish va ularni mustahkamlash ishlari bilan mashg'ul bo'lib kelmoqda.

Yaqin yillarda bo'lib o'tayotgan bunday hamkorliklarning amalga oshirilishida hududlarimiz o'rtasidagi o'zaro hududlararo xavfsizlik, xalqaro kelishuvlarning ratifikatsiyadan o'tishi, chegaralarning daxlsizligi, mintaqamizdagi davlat rahbarlari hamda boshqaruv sohasidagi diplomatik va siyosiy munosabatlarning ijobiy tarzda amalga oshirilayotganligi ahamiyatga loyiqdir.

Bunda misol qilib, 2025 - yil 31-martda O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolandi.

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston prezidentlari Xo'janddagi uch tomonlama uchrashuv yakunida davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnomani imzoladi. So'ng uch mamlakat chegaralari tutashgan hududda Do'stlik stelasi tantanali ravishda ochildi.

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi, deya [xabar qildi](#) O'zbekiston prezidenti matbuot xizmati.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31-mart kuni Xo'jand shahrida Tojikiston prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov bilan uch tomonlama uchrashuvda ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida davlat rahbarlari bir-birlarini muborak Ramazon hayiti hamda Navro'z bayrami bilan qutladilar, birodar xalqlarga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Shavkat Mirziyoyev Tojikiston va Qirg'iziston tomonlarini barcha masalalar uzil-kesil hal etilgani hamda Davlat chegarasini delimitatsiya qilish to'g'risidagi shartnoma imzolangani bilan samimiy tabrikladi.



Ushbu hujjat, shuningdek, uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida imzolananayotgan shartnoma barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashga, butun mintaqaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Tantanali ravishda ochilgan Do'stlik stelasi esa qardosh mamlakatlar o'rtasida mustahkamlanib borayotgan yaxshi qo'shnichilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlarining yangi ramziga aylanishi qayd etildi.

2025 – yil 3 – 4 – aprel kunlari esa “Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bo'lib o'tdi. Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tadigan sammit ishida Yevropa kengashi prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog'iston respublikasi prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev, Qirg'iz Respublikasi prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirok etdi. Samarqand shahrida bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo—Yevropa ittifoqi” birinchi sammiti nafaqat mintaqaviy, balki global siyosiy va iqtisodiy jarayonlar uchun muhim voqealikdir. Mazkur sammit Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichini [boshlab beradi](#).

Mazkur tadbir nafaqat rasmiy muloqotlar, balki aniq rejalar, sheriklik mexanizmlari va yangi loyihalarni amalga oshirishdagi “yo'l xaritasi”ni shakllantirish uchun muhim platformadir.

"Kelajakka sarmoya kiritish" shiori ostida o'tkazilgan tadbirda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Yevropa investitsiya banki rahbarlari ham ishtirok etishdi.

Kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni ko'paytirish, innovatsiyalar, "yashil" energetika, tog'-kon, qishloq xo'jaligi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo'shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, madaniyat, turizm, fan, ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish masalalari diqqat markazida bo'ldi.

Delegatsiyalar rahbarlari xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlarini yuzasidan ham fikr almashdilar.



Dasturga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari va Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari rahbarlari 4-aprel kuni o'z ishini boshlaydigan Samarqand xalqaro iqlim forumining yalpi majlisida ishtirok etdi.

Bundan tashqari, sammit doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazishi ko'zda tutildi.

Shunday raqamli davrda bunday sammit, tadbirlar hamda yig'ilishlarning tashkil etilishi Markaziy Osiyo mamalakatlarining dunyoning turli mintaqalaridagi boshqa mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashi bilan birga mintaqamizdagi davlatlarning obro'- e'tiborini xalqaro darajada ijobiy oshirishga ham yordam berib kelmoqda.

So'nggi 20 yilda mintaqamizdagi davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy – siyosiy munosabatlar mustahkamnib kelmoqda. Bunda xalqlarimiz o'rtasidagi ahillik, birdamlik, bag'rikenglik, o'zaro mehr – oqibat va muruvvatning ham o'rni katta hisoblanadi. Shuningdek bizning hududiy birdamligimizni ham global miqyosda tan olishgan bo'lib, bu Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarning Yevropa, Amerika va boshqa qit'a va mintaqalardagi davlatlar bilan turli sohalarda bir maqsad asosida - malaka hamda tajriba almashish va iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash kabi maqsadlardan iboratdir.

Tarixan Markaziy Osiyo mintaqasi savdo yo'llari asnosida rivojlanib kelgan. Bugungi kunda ham bizning mintaqamiz dunyo iqtisodining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hududlarimiz o'rtasidagi yaxlitlikni ta'minlash masalasi mintaqamizning kelajakda yuqori darajada rivojlanishiga kafolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://yuz.uz/uz/news/markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-dostona-hamkorlik--ozbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyatining-ustuvor-yonalishi>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Markaziy_Osiyo
3. https://www.eeas.europa.eu/eeas/yevropa-ittifoqi-va-markaziy-osiyo-munosabatlari_uz
4. <https://president.uz/oz/lists/view/6659>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/31/chegara/>
6. <https://m.kun.uz/news/2025/03/31/ozbekiston-tojikiston-va-qirgiziston-dostligi-timsoli-ochildi>

